

ODAM ORGANIZMIGA DORI MODDALARNI YUBORISH YO'LLARI VA USULLARI

Tillaboyeva Surayyo Zakirjonovna

2-son Farg'onan Abu Ali Ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi

Umumkasbiy fanlar kafedrasasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada odam organizmiga dorivor moddalarning ta'siri, dori vositalarini inson organizmiga yuborish usullari haqida aytib o'tilgan

Kalit so'zlar: Enteral, peroral, gijja, Bronxlar va o'pkaning shiliq qavatlari.

Dori moddalarini organizmga enteral yuborish usulida_dori moddalari til ostiga,_og'izga, o'n ikki barmoq ichakka, to'g'ri ichakka yuboriladi.



Dori moddalarining til ostiga yuborilishi sublingval yo'li deyiladi. Bu usul kichik yoshdagи bolalarni davolashda umuman qo'llanmaydi. Dori modda til ostiga qo'yilganda og'iz bo'shlig'ida fermentlar faoliyati sust bo'lganligi uchun dori moddalari deyarli parchalanmaydi, til ostiga dori me'da-ichak fermentlari ta'sir qilmaydi, jigarda o'zgarishlarga duch kelmaydi, qo'yilgan joyida so'rilib, umumiy ta'sir ko'rsatadi. Bu usulda ayrim dorilar, asosan glitsin, nitroglitserin, metiltestosteron, pregnin kabilar qo'yiladi, ular qonga tez so'rildi (til ostida qon tomirlari juda ko'p), ta'siri tez boshlanadi.

Og'iz orqali yuborish-peroral yo'l keng tarqalgan, qulay, oson va tabiiydir. Bemor dori moddalarini yordamchisiz qabul qila oladi, yuborilgan moddalar hidi qo'lansa bo'lmasligi, shiliq qavatlarni ta'sirlamasligi kerak. Alkogol, kaliy yodid, barbituratlarning so'riliishi oshqozon shiliq qavatidan boshlanadi. Moddalar asosan ingichka ichak orqali so'rildi, chunki ingichka ichakda qon yaxshi aylanadi. So'riliish tezligi qabul qilgan dorining turiga, shakliga, ovqatdan oldin yoki keyin iste'mol qilinishiga bog'liq. Eritmalar, ayniqsa, spirtli eritmalar kukun dori (poroshok) larga nisbatan tezroq birmuncha so'rildi. Dori och qoringa ichilganda ovqatdan keyin qabul qilingan dorilarga qaragandatezroq so'rildi va kuchliroq ta'sir etadi.

O'n ikki barmoq ichak orqali yuborish usuli: ichakda dori moddalarining yuqori konsentratsiyasini hosil qilish maqsadida moddalar o'n ikki barmoq ichakka zond orqali yuboriladi. Odatda bu usuldan jigar kasalliklarini davolashda foydalaniлади. Masalan, magniy sulfat eritmasi o'n ikki barmoq ichakka bevosita isitilgan holda yuboriladi, ba'zan bu usul gijja xaydovchi dorilar buyurilganda ham qo'llaniladi.

To'g'ri ichak orqali yuborish usuli: dori moddalarini og'iz orqali yuborish mumkin bo'limganda, ruhiy bemorlarni davolashda, bemor behush yotganda, qizilo'ngach yoki oshqozonda o'zgarishlar bo'lganda, oshqozon-ichak fermentlari ta'sirida parchalanadigan dorilar ishlatilganda Ushbu usul qo'llaniladi. Bu yo'l bidan suvli eritma yoki aralashmaga shiliq holida tayyorlangan turli o'rab oluvchi moddalar (kraxmal, kraxmal elimi) qo'llaniladi, moyli dorillardan klizma qilinadi. To'g'ri ichakka dori moddalar sham shaklida qo'yiladi. Ushbu usul qo'llanganda moddalar tez, ya'ni 7-10 minut ichida qonga so'rildi, ularning asosiy qismi gemoroidalvenalar orqali bevosita pastki kovak venaga o'tadi, tez va kuchliroq ta'siretadi, bu usulda ba'zi dorilar og'iz orqali yuboriladigan dorilarga nisbatan kamroq buyuriladi. To'g'ri ichak orqali yuborilgan moddalar to'g'ri va yo'g'on ichak shiliq qavatlariga, ularga yaqin a'zolarga mahalliy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Parenteral yuborish usuli. Nafas yo'llari orqali ingalyasion (ingalasion-nafas olish) yuborish usuli bug'li va Gazli moddalar nafas orqali organizmga tushadi, o'pkadan qonga so'rildi, ta'siri tez boshlanadi va kuchli bo'ladi, chunki o'pkaning so'riliш yuzasi juda keng (kattalarda 10 m² ga teng); o'pka alveollari gazlarni juda tez so'rib oladi. Ingalyasion yo'l bilan yuborilgan dori moddalarini jigarga tushmasdan qonga o'tadi, organizmda deyarli o'zgarmaydi.

Dori moddalarini mahalliy qo'llash usulida asosan dori moddalarini reflektor va qisman mahalliy ta'sir etishi ko'zda tutiladi, bu yo'l bilan malhamlar, pastga, linimentlar, shuningdek spirtli yoki suvli eritmalar, aralashmalar va bolalar sepma dorilari qo'llaniladi. Teri epidermisi jarohatlanganda moddalar tez so'rildi. Teri orqali alkagol, fenol, xloroform yaxshi so'rildi. Bolalar terisi ancha nozik bo'ladi, shuningng uchun ularda ba'zi dori moddalarini teri orqali tez qonga so'riliishi mumkin. Masalan, metilsalitsilat linimenti bola terisiga so'rilsa, 10-15 minutdan keyin uni qonda aniqlash

mumkin. Namlanib turgan teriga borat kislota sepilsa, u tezda qonga so'rilib, bola organizmini zaharlashi mumkin. Shiliq qavatlar orqali yuborish usuli dori moddalari burun, xalqum, ko'z, buyrak jomi, qin shiliq qavatlariga ta'sir etish uchun qo'llanadi. Ko'pgina dori moddalar burun va xalqum, ko'z shiliq qavatlaridan qonga so'rildi, shuning uchun tarkibida zaharli yoki kuchli ta'sirlovchi tomchilar umumiyligi ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Bronxlar va o'pkaning shiliq qavatlaridan ham dori moddalar qonga tez so'rildi. Siyidik chiqaruv kanali, siyidik yo'llari va buyrak jomi shiliq qavatlari orqali ham moddalar tez so'rildi; bachardon, qin va qovuq shiliq qavatlari orqali dori moddalarining so'rilishi sekinlik bilan o'tadi, ammo yog' va yog'simon moddalar tez so'rildi. Bu holatni ginekologiya amaliyotida qinni chayish uchun dori moddalarini tavsiya qilishda nazarda tutish kerak.

Teri ostiga yuborish yo'li bilan dori moddalarining asosan suvli eritmalar yuboriladi, ta'siri 10-15 minutdan keyin boshlanadi, so'rilish muddati peroral yo'l bilan yuborilganga ko'ra kamroq, ta'sir kuchi esa o'sha miqdorni og'izdan yuborilgandan 2-3 barobar kuchliroq bo'ladi. Suspenziyalarni, juda yopishqoq va sekin so'rildigan moyli eritmalarни teri ostiga yuborish tavsiya etilmaydi, chunki to'qimalarda infiltratsiya va nerkozni yuzaga keltirishi mumkin.



Mushaklar orasiga yuborish usulida mushaklar orasiga suvli va moyli eritmalar, shuningdek dori moddalarining suspenziyalari ham yuboriladi. Mushaklar teri osti to'qimalarga nisbatan qon bilan ko'proq ta'minlangani uchun dori moddalarini mushaklar orasida tezroq so'rildi.

Venalar ichiga yuborish usulida moddalar bevosita qon oqimiga tushadi, bunda qon bilan o'zaro aralashganda cho'kma hosil qilmaydigan, qonni ivitmaydigan yoki gemoliz hosil qilmaydigan dori moddalar eritmasi qo'llaniladi. Dorini venaga astasekin yuborish kerak, aks holda qonda ular konsentratsiyasi birdan oshib ketib, organizmga zaharlovchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dorining ta'siri juda tez, ko'pincha in'eksiya vaqtidayoq boshlanadi, ta'sir muddati teri ostiga va mushak orasigayuborilgandan kamroq bo'ladi. Dori moddalar to'g'ridan-to'g'ri yurakka, bo'g'implarga, suyaklarga yuboriladi. Moddalar elektr toki bilan, ionoforez usulida yuborilishi mumkin. Parenteral usullar juda ko'p, lekin dorilar parenteral yo'l bilan yuboriladi deganda ularni asosan teri ostiga, mushaklar orasiga va venalarga yuborilishi ko'zda tutiladi, chunki boshqayuborish yo'llari nisbatan kam qo'llaniladi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. K'O Zokirova "Hamshiralik ishi asoslari"
2. Meditsina xamshiralari o'quv qo'llanmasi Ramazanova R. A. Taxriri ostida, Toshkent "O'qituvchi", 1985.
3. Grajdan mudofaasi P. G. Kubovskiyning umumiyl taxriri ostida. Toshkent "O'qituvchi", 1992.
4. O'qituvchilarning meditsina-sanitariya tayyorgarligi. V. N. Zavyanov, M.I. Gogolev, V.S. Mordvinov, B.A. Gayko, V.A. Shkuratov, V.I. Ushakova, Toshkent "O'qituvchi", 1991.